

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEK TILI VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

NUTQIY KO'NIKMALARNI BAHOLASH ASOSLARI
fani bo'yicha

SILLABUS

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti (kechki)

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi 302NKB A 4 5	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025/2026								
Har bir semestrdagi fan/modulning nomi	Semestr	Haftalik dars soatlari		O'quv mashg'ulotlari (soat)			Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)			
		ECTS - Kreditlar		Jami:	ma'ruza	seminar			amaliy	laboratoriya	
	Nutqiy ko'nikmalarni baholash asoslari	8	5	4	60	20	14	26	0	90	150
		Jami:	5	4	60	20	14	26	0	90	150

Fanning maqsadi (FM)

Talabalarni Filologik ta'limda baholash nazariyasi va amaliyoti fanining nazariy va metodik masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish, ularga fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundariyasi hamda oliy filologik ta'limda baholash asoslari haqida ma'lumot berish. Shuningdek, ularda oliy filologik ta'limda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini qanday baholashga oid kushiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar

1	Hozirgi o'zbek adabiy tili
2	O'zbek adabiyoti
3	Ona tili o'qitish metodikasi
4	Adabiyot o'qitish metodikasi

Ta'lim natijalari

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

filologik ta'limda baholash nazariyasi va amaliyoti fanining maqsadi, vazifasi haqidagi ma'lumotlarni; baholash mazmuni, vositalari, metodlari va mezonlari hamda kredit-modul tizimi haqidagi ma'lumotlarni; nazorat turlari haqidagi ma'lumotlarni; pedagogik o'lchov vositalarining ishonchiligi va validligi, shaffofligi hamda ularni ekspertiza qilish talablari haqidagi bilimlarga,

ta'limda baholash jarayoni tashkil eta olish; kredit-modul tizimida baholash jarayonini loyihalashtira olish; mustaqil ta'lim natijalarini baholash mexanizmini ishlab chiqa olish; ta'limda baholash mazmuni, vositalari, metodlari hamda mezonlarini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan baholash vositalarini nazariy ekspertizadan o'tkaza olish; talabalarining kompetensiyalarini adolatli, shaffof baholay olish **ko'nikmalariga**,
baholash nazariyasi va amaliyoti to'g'risida doir nazariy qarashlarni farqlay olish, baholashdagi so'nggi tendensiyalarni qo'llay olish; filologik ta'limdagi baholash jarayoniga oid amaliy muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib bora olish kabi **kashiy kompetensiyalariga** ega bo'ladi.

Talabalarining kreditlarni olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Nutqiy ko'nikmalarni baholash asoslari fanidan 8-semestr **150 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan**, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra **ijobiy baholanib kashiy kompetensiyalarini yetarli darajada egallagan** talabaga 8-semestr **5 kredit beriladi**.

Talaba belgilangan **ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi**.

Talabalarining bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

Talabalarining bilimini baholash mezonlari:

5 (a'lo) baho – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

4 (yaxshi) baho – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

3 (qoniqarli) baho – talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

2 (qoniqarsiz) baho – talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo‘yicha tasavvurga ega emas deb baholanadi. 1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi. Oraliq nazorat: o‘tilgan mavzular asosida <u>yoзма</u> shaklda, <u>2 marta</u> o‘tkaziladi. Har bir talabaga bir savolnoma tarkibida uchtdan savol beriladi. Nazortani bajarish uchun 2 akademik soat vaqt ajratiladi. Baholash mezonlari:			
T/r	Baholash indikatori	Ball	Ajratilgan vaqt
1.	Berilgan nazariy savolni tushuna oladi; savolga aniq javob bera oladi; fikrini ilmiy asoslab yoza oladi; keltirgan asoslarini sharhlay oladi; nazariy savol mohiyatini ochishda hayotiy misol va dalillarni keltira oladi; savol yuzasidan fikrini xulosalay oladi.	1–15	60 daqiqa
2.	Keltirilgan nazariy savolga aniq javob bera oladi; savol yuzasida mushohada yurita oladi; fikrini asoslash maqsadida dalillar keltira oladi. Savoldan chetga chiqmagan holda fikr va dalillarini batafsil tahlil qila oladi; savol yuzasidan fikrini xulosalay oladi.	1–15	
3.	Fan yuzasidan egallagan nazariy bilimlarini amalda qo‘llay oladi. Savolda keltirilgan nazariy bilimni tahlilga torta oladi; tahlildan olgan xulosalari asosida o‘zi fikrini ifodalay oladi. Fikrini ifodalashda hayotiy misol va dalillarni keltira oladi; savolga aniq javob bera oladi.	1–30	
4.	Mustaqil ta‘lim mavzularini 50 % ini belgilangan talab asosida topshira oladi	1–40	Oraliq nazoratga qadar
	100–90		5
	89–70		4
	69–56		3

Namunaviy variant:

1. Ta‘limning “oltin uchburchagi” nima? Fikringizni asoslab yozing.
2. Testning sifati: validlik.
3. Biror mavzu doirasida yozma nutq ko‘nikmasini baholashga oid konstrukti belgilab, misollar bilan tushuntiring.

Yakuniy nazorat: semestr davomida o‘tilgan mavzular bo‘yicha og‘zaki (loyiha taqdimoti) shaklda o‘tkaziladi. Har bir talabaga 5–6 daqiqa vaqt ajratiladi.

Yakuniy nazorat yo‘riqnomasi

1. Mutaxassislik fanlardan birini tanlang.
Ona tilini o‘qitish metodikasi
Adabiyotni o‘qitish metodikasi
Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish asoslari
Darsliklardan foydalanish metodikasi
Nutqiy ko‘nikmalarni baholash asoslari
2. Baholash maqsadi aniqlanib, ta‘lim natijalari belgilanadi.
3. Baholash mezonlari belgilanadi.
4. Vaqt taqsimoti belgilanadi.
5. Baholash formati belgilanadi.
6. Spetsifikatsiya ishlab chiqiladi.
7. Spetsifikatsiya ekspertizadan o‘tkaziladi.
8. Test topshiriqlari tuzib, aprobatasiyadan o‘tkaziladi.
9. Loyiha tayyor holga keltiriladi.

Loyiha taqdimotidagi belgilangan talablar doirasida tayyorlangan loyiha uchun umumiy baholash mezonlari:

T/r	Baholash indikatori	Ball
1.	Spetsifikatsiya mazmuni o‘quv dasturlariga mos	5
2.	Test spetsifikatsiyasida domen, sub domen, baholanadigan ko‘nikmalar to‘g‘ri shakllantirilgan	10
3.	Baholash imkonsiz bo‘lgan ko‘nikmalar uchramaydi	5
4.	Topshiriqlar yordamida talabani to‘g‘ri baholagan	5

5.	Baholash mezonlari aniq va tushunarli	10
6.	Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi to'g'ri qo'yilgan	10
7.	Test topshiriqlarining savol qismi to'g'ri shakllantirilgan	5
8.	Topshiriqlar fanning baholash konstruktidan chetga chiqmagan	10
9.	Test topshiriqlari ekspertizadan o'tkazilgan	20
10.	Vaqt to'g'ri taqsimlangan	5
11.	Loyihada imloviy, uslubiy, texnik xatolar kuzatilmagan	5
12.	Mustaqil ta'limning bajarilgani	10
	100-90 "5" baho	
	89-70 "4" baho	
	69-56 "3" baho	

№	Fan mazmuni	Soatlar hajmi
	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (5-semestr)	20
M 1	Baholash nazariyasi – pedagogik fan sifatida. Baholash nazariyasining asosiy tushunchalari	2
M 2	Ta'limda o'qish va uning turlari. Baholashni loyihalashtirish	2
M 3	Ta'limda baholash maqsadi va vazifalari. Baholash domenlari	2
M 4	Ta'limda baholash turlari. Baholashdagi yondashuvlar	2
M 5	Ta'limda baholash tamoyillari. Baholash metodlari	2
M 6	Baholash vositalari va turlari. Ularini ekspertiza qilish.	2
M 7	Ta'limda imtihon jarayonini tashkil etish. Ta'lim sifatini monitoring qilish	2
M 8	Ona tili va adabiyot faniga oid kompetensiyalarni baholash bo'yicha milliy va xorijiy tajribalar	2
M 9	Anglash ko'nikmasini baholash mazmuni, metodikasi va mezonlari	2
M 10	Yozma va og'zaki nutqni baholash mazmuni, metodikasi va mezonlari	2
	Mashg'ulotlar shakli: seminar	14
S 1	Baholash nazariyasidagi asosiy tushunchalar. Baholash maqsadi, vazifasi va ta'siri	2
S 2	Nutqiy kompetensiyani baholash mazmuni va mezonlari	2
S 3	Filologik ta'limda baholashni loyihalashtirish va tashkil etish. Test va uning turlari	2

S 4	Formativ-rivojlanuvchi va summativ-xulosalovchi baholash mazmun-mohiyati	2
S 5	Baholashda validlik va ishonchilikni ta'minlash. Baholashda adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash	2
S 6	Ta'limda baholash metodlari va yondashuvlar	2
S 7	Ta'limda imtihon jarayonini tashkil etish. Ta'lim sifatini monitoring qilish	2
	Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (5-semestr)	26
A 1	Baholash jarayoni tashkil etish talablari	2
A 2	Ta'limda o'qish va uning turlari	2
A 3	Formativ baholashni loyihalashtirish. Nazorat varaqalari va baholash rubrikalari	2
A 4	Summativ baholashni loyihalashtirish. Nazorat varaqalari va baholash rubrikalari	2
A 5	Baholashda validlik va ishonchilikni ta'minlash. Baholashda adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash	2
A 6	Ona tili va adabiyot fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasini ishlab chiqish	2
A 7	Anglash, yozma va og'zaki nutq ko'nikmasini baholash va unda yo'l qo'yiladigan xatoliklarni tahlil qilish	2
A 8	Anglash ko'nikmasini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarini tuzish	2
A 9	Yozma nutq ko'nikmasini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarini tuzish	2
A 10	Og'zaki nutq ko'nikmasini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarini tuzish	2
A 11	Grammatik savodxonlikni tekshiruvchi test topshiriqlarini tuzish	
A 12	Adabiyotga oid ko'nikmalarni baholovchi test topshiriqlarini tuzish	2
A 13	Ona tili va adabiyot fanidan tuzilgan topshiriqlarini ekspertiza qilish	2

№	Mustaqil ta'lim (MT) (5-semestr)				Soatlar hajmi
	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	90	
MT 1	Baholash nazariyasi va tarixi bilan tanishish va olgan xulosalari asosida tezis yozish	amaliy	psixologik test, pedagogik test, pedagogik o'qibolar	6	
M 2	Ta'lim tizimiga oid baholash usullarini tahlil qilish hamda	amaliy	ta'lim, baholash turlari, normaga asoslangan baholash, mezonlarga asoslangan baholash	6	

	baholashning muqobil usulini shakllantirish			
M 3	Oliy ta'limga saralash testlari: milliy va xalqaro tajribalarni o'rganish va olgan xulosalari asosida taqdimot tayyorlash	amaliy	SAT, YeGE, GCSE	6
M 4	Baholash va ta'lim jarayoni bosqichlarini o'rganish va olgan xulosalari asosida tezis tayyorlash	amaliy	ta'lim uchburchagi	6
M 5	Til bilimni baholashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va olgan xulosalarini yozma va og'zaki bayon qilish	amaliy	validlik, chegara	6
M 6	Ta'lim tizimida foydalaniladigan test topshiriqlarini tahlil qilish va uning qiyinlik darajasini aniqlab, jadval ko'rinishida ifodalash	amaliy	bilish, tushunish, qo'llash, tahlil etish, baho berish, yaratish	6
M 7	Tillar bo'yicha xalqaro test tizimlari (IELTS, CEFER v.b.) bilan tanishish. U asosida namunaviy test variantini shakllantirish	amaliy	xorijiy til, o'qish, eshitib tushunish, yozish, gapirish	6
M 8	Baholash nazariyasidagi asosiy tushunchalarni sharhlash. Fanga oid terminlar lug'atini shakllantirish	amaliy	domen, konstrukti, metod, mezon, vosita	6
M 9	Formativ-rivojlantiruvchi baholashning ta'lim tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish va olgan xulosalari asosida tezis yozish	amaliy	formativ baholash, rag'bat, rivojlantirish	6
M 10	Summativ-xulosalovchi baholashning ta'lim tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish va olgan xulosalari asosida tezis yozish	amaliy	summativ, saralash, « wash back »	6
M 11	Mezonga asoslangan baholashning ta'lim tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish va olgan xulosalari asosida tezis yozish	amaliy	belgilangan mezon, o'zgarmas mezon	6

M 12	Normaga baholashning tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish va olgan xulosalari asosida tezis yozish	asoslangan ta'lim ahamiyatini	amaliy	guruh, norma, xulosalash	6
M 13	Ta'lim muassalarida imtihon jarayonini tashkil etish talablarini ishlab chiqish va uni jadvalda aks ettirish		amaliy	vaqt, sharoit, shaffoflik, obyektivlik	6
M 14	Test va uning metodikasi bilan tanishish va olgan xulosalari asosida tezis tayyorlash		amaliy	ochiq test, yopiq test, amaliy test	6
M 15	Ona tili va adabiyot fanidan milliy va xorijiy baholash tizimlarining qiyoslash va olgan xulosalarini diagrammasida ifodalash		amaliy	lingvistik tahlil, yozma va og'zaki nutq, Milliy test tizimi, SAT, YeGE, GCSE, PIRLS, PISA	6

Asosiy adabiyotlar

1. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 252 bet.
2. Sh.Abdiraimov. Baholash nazariyasi asoslari. Metodik qo'llanma. – Toshkent: Zebo Prints, 2024. – 220 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abdiraimov Sh.S. Ona tilidan test topshiriqlarini ekspertiza qilishning o'ziga xosligi. Davlat test markazi. Axborotnoma. 2020 №2. 21–27-betlar.
2. Abdiraimov Sh. Nutqiy ko'nikmalarni baholash asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent. "Nodirabegim" nashriyoti – 2023. –B. 120.
3. Abdiraimov Sh.S. Ona tili fanidan savodxonlikni tekshirishda turli test topshiriqlarining ahamiyati. Davlat test markazi. Axborotnoma. 2020 №4. 10-15-betlar.
4. Baratov A.A. Pedagogik o'lo'chovlar nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2018. 41 b.
5. H. Douglas Brown: Language Assessment: Principles and Classroom Practices, 2nd Edition. Cambridge University Press, 2010.
6. James Popham: Modern Educational Measurement. 3rd Edition. Allyn and Bacon, 2000.
7. Testologiya bo'yicha izohli terminologik lug'at-minimum. T.f.d. B. Ismoilovning umumiy tahlili ostida. – Toshkent, 2005.

8. Solijonov A. Test o'zi nima? Ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun test topshiriqlarini tuzish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha qo'llanma. – Toshkent, 2009.

Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot	
Muallif:	X.Baxtiyorova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi
E-mail:	Husnorabaxt4998@gmail.com
Tashkilot:	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida
Taqrizchilar:	Taqrizchilar: K.Mavlonova  (imzo) O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida professori, ped.f.d.(DcS) Sh.Abdiraimov  (imzo) Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi, ped.f.b.f.d. (PhD)

Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2025-yil  -avgustdagi  -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  V.Nazarov
Kafedra mudiri  S.Muhamedova
Tuzuvchi  X.Baxtiyorova
ARM direktori  Z.Jumayeva

